Materiallar to’plami · Conference Proceedings

**“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”**

**IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR**

01 October – 14 November 2026

UDK 34

# YANGI O‘ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLAR HUQUQRINI TA’MINLASHNING TASHKILIY-HUQUQIY MEXANIZMLARI VA IJTIMOIY INTEGRATSIYASI: MILLIY AMALIYOT HAMDA XALQARO TAJRIBA

Dilmurod Yo‘ldashev*

*Farg‘ona Davlat Universiteti doktoranti*

**MAQOLA MA‘LUMOTLARI**

✉ dilmurodfergana@gmail.com

DOI: 10.5281/zenodo.24278144

*Kalit so‘zlar:*

nogironlar huquqlari, ijtimoiy model, inklyuziv jamiyat, BMT Konvensiyasi, oqilona moslashtirish, universal dizayn, to‘siqlarsiz muhit, bandlik kvotasi, ICF, Janubiy Koreya tajribasi.

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini ta’minlash, ularning jamiyatga to‘laqonli integratsiyalashuvi hamda inklyuziv muhitni shakllantirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari tahlil qilinadi. BMTning “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi normalarining milliy qonunchilikka implementatsiyasi, xususan, “oqilona moslashtirish” va kamsitmaslik kafolatlari qiyosiy-huquqiy jihatdan o‘rganilgan. Shaharsozlik, transport va axborot infratuzilmasidagi universal dizayn talablari hamda mehnat bozoridagi 3 foizlik kvotalash tizimining amaliy samaradorligi empirik ma’lumotlar asosida yoritib berilgan. Shuningdek, Janubiy Koreya va Yevropa Ittifoqining ilg‘or tajribalari qiyoslanib, an’anaviy “tibbiy model”dan JSSTning ICF tasnifiga asoslangan “ijtimoiy-huquqiy model”ga to‘liq o‘tish, “Jarima — Rag‘bat” maxsus jamg‘armasini tashkil etish hamda davlat qabul komissiyalarida nogironlar jamoat tashkilotlariga majburiy veto huquqini berish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri barcha fuqarolarning jismoniy, aqliy yoki sensor imkoniyatlaridan qat’i nazar, ijtimoiy ne’matlardan teng foydalanishi va ularning huquqiy kafolatlaridir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha bo‘lgan Barqaror rivojlanish kun tartibida belgilangan “Hech kimni ortda qoldirmaslik” (Leave no one behind) global tamoyili nogironligi bo‘lgan shaxslarning to‘laqonli ijtimoiy integratsiyasini inson huquqlarining ajralmas sharti sifatida e’tirof etadi. Tarixiy jihatdan nogironlikka nisbatan qo‘llanilgan an’anaviy “tibbiy model” (muammoni faqat shaxsning jismoniy nuqsoni sifatida ko‘rish) o‘z o‘rnini xalqaro miqyosda “ijtimoiy model”ga (muammoni shaxs atrofidagi to‘siqlar va kamsitishlar majmui deb bilish) bo‘shatib berishi huquqiy va ijtimoiy-institutsional yondashuvlarni tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi tomonidan BMTning “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasining ratifikatsiya qilinishi (2021-yil), yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ijtimoiy davlat tamoyillarining mustahkamlanishi hamda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi mamlakatda inklyuziv jamiyat qurishning yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur islohotlar nogironligi bo‘lgan shaxslarni passiv ijtimoiy yordam oluvchilardan huquqning teng huquqli faol subyektlariga aylantirishni maqsad qiladi. Biroq shaharsozlikda to‘siqlarsiz

(universal) muhitning yetarli darajada shakllanmaganligi, inklyuziv ta’lim infratuzilmasining to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligi hamda mehnat bozorida munosib bandlikni ta’minlashdagi tizimli muammolar qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning amaliy ijrosi o‘rtasida tafovutlar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Tadqiqot maqsadi — O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini ta’minlashning amaldagi tashkiliy-huquqiy mexanizmlari samaradorligini tahlil qilish, ularning ijtimoiy integratsiyalashuviga to‘sqinlik qilayotgan institutsional va amaliy to‘siqlarni aniqlash hamda xalqaro standartlar asosida ushbu sohani takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

BMT Konvensiyasi talablari asosida milliy qonunchilikdagi “oqilona moslashtirish” va kamsitmaslik kafolatlarining huquqiy mexanizmlarini baholash;

Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun to‘siqlarsiz jismoniy hamda axborot-kommunikatsiya muhitining real holatini tahlil qilish;

Inklyuziv ta’lim tizimi va mehnat bozoridagi kvotalash mexanizmlari orqali bandlikni ta’minlashdagi institutsional to‘siqlarni ochib berish;

Rivojlangan davlatlar tajribasini inobatga olgan holda milliy amaliyotni transformatsiya qilish bo‘yicha aniq takliflar shakllantirish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi — nogironlar huquqlarini ta’minlash tizimini faqatgina moddiy yordam va nafaqalar taqsimoti orqali emas, balki shaxsning mustaqil yashash huquqi, inklyuziv ta’lim va kafolatlangan mehnat faoliyatini bog‘lovchi yagona sotsial-institutsional ekotizim sifatida kompleks tahlil qilinishida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot jarayonida nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini ta’minlash va ularning ijtimoiy integratsiyasini o‘rganishda quyidagi usullardan foydalanildi:

**Inson huquqlariga asoslangan yondashuv (Human rights-based approach):** Tadqiqotning asosiy nazariy tayanchi bo‘lib, shaxsga nisbatan xayriya yoki tibbiy ob’yekt sifatida emas, balki fundamental huquqlarga ega mustaqil subyekt sifatida qarash tamoyilini ifodalaydi.

**Qiyosiy-huquqiy tahlil:** BMT Konvensiyasi normalari va xalqaro andozalar O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda qonunosti hujjatlari bilan tizimli solishtirildi.

**Institutsional tahlil:** Ijtimoiy himoya, sog‘liqni saqlash, bandlik va ta’lim sohasidagi mas’ul davlat organlarining o‘zaro hamkorlik mexanizmlari, shuningdek, davlat va nodavlat sektorining integratsiyadagi o‘rni o‘rganildi.

**Statistik va empirik tahlil:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Statistika agentligi hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining rasmiy ko‘rsatkichlari (nogironligi bo‘lgan shaxslar soni, bandlik darajasi, inklyuziv sinflar qamrovi) tahlil qilindi.

**Kontent-tahlil:** Shaharsozlik normalari (QMQ), jamoat transporti qulayligi hamda davlat xizmatlari portallarining xalqaro WCAG standartlariga muvofiqlik darajasi ko‘rib chiqildi.

Xalqaro huquqiy standartlar va milliy qonunchilik uyg‘unligi

BMTning 2006-yilgi “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi (CRPD) nogironlik masalasida ijtimoiy modelni global miqyosda mustahkamladi. O‘zbekiston tomonidan 2021-yilda mazkur Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi hamda 2023-yilgi yangi tahrirdagi Konstitutsiyada “ijtimoiy davlat” tamoyili va 57-moddadagi davlat kafolatlari belgilanishi milliy huquqiy maydonni tubdan yangiladi.

BMT Konvensiyasi va milliy qonunchilikning qiyosiy tahlili quyidagi mezonlarni ochib beradi: **Kamsitmaslik kafolatlari:** Konvensiyaning 2-moddasi va “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunning 4–6-moddalarida nogironlik belgisi bo‘yicha har qanday kamsitish qat’iyan taqiqlangan.

**“Oqilona moslashtirish” (Reasonable accommodation):** Muayyan vaziyatda ortiqcha moliyaviy yuk tushirmaydigan tarzda shaxsning individual ehtiyojlariga moslashtirish choralarini ko‘rish shartligi qonuniy mustahkamlangan. Biroq buni asossiz rad etganlik uchun javobgarlik choralari milliy sohaviy kodekslarda (Mehnat, Ma’muriy javobgarlik) to‘liq aks etmagan.

**“Universal dizayn” talabi:** Shaharsozlik va xizmatlar sohasida universal dizayn talablari qonunda ko‘zda tutilgan bo‘lsa-da, amaldagi qurilish normalarining ijrosi ustidan qat’iy sanksiyalar mexanizmi dispozitiv holatda qolmoqda.

**Shaharsozlik va arxitektura:** Bino va inshootlardagi ko‘plab panduslar me’yordagi 8–10% qiyalik o‘rniga 30–40% tik burchakda va sirpanchiq materiallardan qurilgan bo‘lib, mustaqil harakatlanish imkonini bermaydi.

**Transport tizimi:** Past polli avtobuslar soni ortgan bo‘lsa-da, bekat platformalari va avtobus polining balandlik nisbati o‘rtasidagi nomutanosiblik to‘laqonli mustaqil foydalanishni cheklaydi. Temir yo‘l va shaharlararo qatnovlarda moslashtirilgan vagonlar soni yetarli emas.

**Raqamli qulaylik:** Davlat axborot resurslarida xalqaro WCAG 2.1 standartlari to‘liq tatbiq etilmagan. Rasmiy saytlarda ekran o‘quvchi dasturlarga moslik, rasmlarga matnli tavsif (Alt-text) berish va videolarni surdo-tarjima bilan ta’minlash darajasi pastligicha qolmoqda.

**Inklyuziv ta’limdagi resurs taqchilligi:** Umumta’lim maktablarida pedagoglarning maxsus metodik tayyorgarligi, Brayl yoki imo-ishora tili bo‘yicha bilimlari yetishmaydi. Muhim institut hisoblangan “yordamchi o‘qituvchi” (tyutor) shtatlari to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan.

**Mehnat bozoridagi 3 foizlik kvota muammosi:** Xodimlar soni 20 nafardan ortiq korxonalarda 3% ish o‘rni ajratish belgilangan bo‘lsa-da, ish beruvchilar asosan past malakali (qorovul, farrosh kabi) o‘rinlarni taqdim etish bilan cheklanmoqda. Ish joyini oqilona moslashtirish xarajatlari va byurokratik qiyinchiliklar sababli ko‘plab tashkilotlar kvotani bajarishdan ko‘ra arzon ma’muriy jarimani to‘lashni afzal bilmoqda.

**Raqamli bandlik:** Frilans va IT sohasidagi masofaviy ish imkoniyatlari yuqori bo‘lishiga qaramay, adaptiv texnologiyalar bilan ta’minlash qamrovi respublika bo‘yicha yetarli emas.

Amaliyot tahlili qonunchilik va ijro o‘rtasidagi ziddiyatlarni yuzaga chiqaruvchi asosiy omillarni ko‘rsatadi: **Tibbiy model inersiyasi:** Nogironlik hanuzgacha TMEK tomonidan faqat patologik nuqson sifatida baholanmoqda. JSSTning Funksionallik, nogironlik va salomatlik xalqaro tasnifi (ICF) doirasidagi shaxs va muhit o‘zaro ta’sirini baholovchi zamonaviy tizimga to‘liq o‘tilmagan. Natijada davlat siyosati passiv kompensatsiya (nafaqa berish) doirasida qolib, integratsiyaga qaratilgan investitsiyalar oqsamoqda.

**Xorijiy modellar bilan qiyoslab ko‘rilganda samarali tizimlar yaqqol ko‘rinadi.**

*Janubiy Koreya tajribasi:* Majburiy kvotani bajarmagan korxonalardan undirilgan yig‘imlar maxsus Jamg‘armaga yo‘naltiriladi va bu mablag‘lar kvotadan ortiq nogironlarni ishga olgan hamda ish joyini moslashtirgan boshqa ish beruvchilarni subsidiyalashga sarflanadi. O‘zbekistonda ham xuddi shunday “jarima-rag‘bat” ekotizimini joriy etish talab etiladi. *Yevropa Ittifoqi tajribasi:* “Qulaylik to‘g‘risidagi Yevropa akti” (EAA) orqali tovarlar, dasturiy ta’minot va xizmatlar uchun qat’iy universal dizayn talablari kiritilgan. Bu talablarsiz mahsulotlar bozorga chiqarilmaydi.

**Ijtimoiy stereotiplar:** Paternalistik qarashlar va ish beruvchilarning nogironligi bo‘lgan shaxslar salohiyatiga ishonchsizligi “mustaqil hayot kechirish” (independent living) tamoyilining ro‘yobga chiqishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Tadqiqot xulosalari asosida nogironlar huquqlarini kafolatlash va ularning ijtimoiy integratsiyasini jadallashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

**Qonunchilik mexanizmlari:** Mehnat hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslarga “oqilona moslashtirish”ni asossiz rad etganlik uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’muriy javobgarlik va zararni qoplash normalarini kiritish va TMEK tizimidan bosqichma-bosqich JSSTning ICF (Funksionallik tasnifi) metodologiyasiga to‘liq o‘tish va Individual reabilitatsiya va integratsiya dasturini (IRID) raqamlashtirish.

**Infrastruktura va qulaylik:** Bino va inshootlarni foydalanishga qabul qilishda Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda Nogironlar jamoat birlashmalarining roziligini majburiy shart (veto huquqi) qilib belgilash va barcha davlat resurslari uchun WCAG 2.1 xalqaro standartlarini majburiy texnik reglament sifatida qabul qilish.

**Ta’lim va bandlik:** Umumta’lim va oliy o‘quv yurtlarida tyutorlik (yordamchi pedagog) shtatlarini davlat byudjeti hisobidan kengaytirish; Janubiy Koreya andozasida kvota buzilgani uchun jarimalarni maxsus “Bandlik va moslashtirish jamg‘armasi”ga jamlab, ushbu mablag‘lar hisobidan ish o‘rnini moslashtirgan ish beruvchilarga soliq preferensiyalari va subsidiyalar ajratish.

## References


[1]

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrirda). — Toshkent, 2023.
2. United Nations. Convention on the Rights of Persons with Disabilities (CRPD). Treaty Series, vol. 2515, Dec. 2006.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘RQ-641-son, 15.10.2020-y.
4. World Health Organization. International Classification of Functioning, Disability and Health (ICF). Geneva: WHO, 2001.
5. Degener, T. A Human Rights Model of Disability. In: Blanck, P., Flynn, E. (eds) Routledge Handbook of Disability Law and Human Rights. Routledge, London, 2017, pp. 31–49.
6. Kim, K., & Lee, J. Employment quota systems and reasonable accommodation: Lessons from South Korea’s disability employment policies. International Journal of Disability Management, 2021, 16, e4.
7. European Parliament and Council. Directive (EU) 2019/882 on the accessibility requirements for products and services (European Accessibility Act). Official Journal of the European Union, 2019.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi hisobotlari (2024–2026-yy.).
9. huquqplus.uz huquqiy axborot portali